



UDK: 159.922.6

ORCID: 0009-0005-2941-8130

SHAXSIY SALOHIYAT – YETUKLIKNING ASOSI YA'NI SHAXSNING ZARUR VA MUHIM PSIXOLOGIK XUSUSIYATI.

G'aniyeva Nargiza Odiljonovna

NamDU Psixologiya kafedrasi 3-bosqich tayanch doktoranti

nargiza.o.ganiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada "shaxsiy salohiyat" tushunchasi, olimlar tomonidan berilgan ta'riflar va uning tuzilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'smirlarda shaxsiy salohiyatni namoyon qilishning zarurati ochib berilgan. O'smirlarda shaxsiy salohiyat namoyon bo'lishi va uni rivojlanishi uchun ta'sir etuvchi psixologik sabab va omillar ko'rib chiqilgan. Empirik tadqiqotlar asosida o'smirda shaxsiy salohiyat darajasini aniqlashga harakat qilindi. Shaxsiy salohiyatning tarkibiy komponentlari asosida ishlab chiqilgan so'rovnoma natijalar tahliliga ko'ra: 13 va 15 yoshdagi o'smirlarda energetik, motivatsion-qadriyatli, hissiy-irodaviy, kognitiv, konnotativ (xulq-atvor) komponenti darajalari aniqlandi.

Kalit so'zlar: rivojlanish, o'z-o'zini anglash, o'zini namoyon qilish, moslashish, ijtimoiylashuv, integratsiya, energetik, motivatsion-qadriyatli, hissiy-irodaviy, kognitiv, konnotativ.

ЛИЧНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ – ОСНОВА ЗРЕЛОСТИ, ТО ЕСТЬ НЕОБХОДИМОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ КАЧЕСТВО ЛИЧНОСТИ.

Аннотация: В статье анализируется понятие «личностный потенциал», определения, данные ему учеными, и его структура. В нем также подчеркивается необходимость развития личностного потенциала подростков. Рассмотрены психологические причины и факторы, влияющие на проявление и развитие личностного потенциала подростков. Предпринята попытка определить уровень личностного потенциала подростков на основе эмпирического исследования. По результатам анализа результатов анкеты, разработанной с учетом структурных компонентов личностного потенциала, у подростков 13 и 15 лет определялись уровни энергетического, мотивационно-ценностного, эмоционально-волевого, когнитивного и коннотативного (поведенческого) компонентов.

Ключевые слова: развитие, самосознание, самовыражение, адаптация, социализация, интеграция, энергетический, мотивационно-ценностный, эмоционально-волевой, когнитивный, коннотативный.

PERSONAL POTENTIAL IS THE FOUNDATION OF MATURITY, THAT IS, AN ESSENTIAL PSYCHOLOGICAL TRAIT OF A PERSON.

Annotation: The article analyzes the concept of "personal potential", the definitions given by scientists and its structure. It also reveals the need to develop personal potential in adolescents. The psychological reasons and factors influencing the manifestation and development of personal potential in adolescents are considered. An attempt was made to determine the level of personal potential in adolescents based on empirical research. According to the analysis of the results of the questionnaire developed based on the structural components of personal potential: the levels of energetic, motivational-value, emotional-volitional, cognitive, connotative (behavioral) components were determined in adolescents aged 13 and 15.

Key words: development, self-awareness, self-expression, adaptation, socialization, integration, energetic, motivational-value, emotional-volitional, cognitive, connotative.

KIRISH.

Ta'lim – tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchi shaxsni rivojlantirish bo'lgan bir davrda, ularning shaxsiy salohiyatini shakllantirish haqida o'ylash juda ham zarur masala hisoblanadi.

Kundalik turmishdagi yuz beradigan sinovlar, muammo, qiyinchiliklar va to'siqlarni yengib o'tish, yuzaga keladigan qo'rquv, xavotirlanish, ikkilanish, tushkunlikka tushish va bu vaziyatlardan chiqib, yangi yechimni topish, muvaffaqiyatga erishish insonning haqiqiy imkoniyatlarini ochib beradi. Lekin ko'p holatlarda odamlar o'zlarining ichki salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va qanday muvaffaqiyatlarga erisha olishlarini tasavvur qilisha olmaydi, nima uchun va qaysi sabablarga ko'ra o'zlarini namoyon eta olishmaganliklarini ham anglashmaydilar. Shuning uchun salohiyat shaxsning zarur va muhim qismi, inson yetukligining ko'rsatkichidir.

Shaxsiy salohiyat nima va uni o'smirlarda qanday qilib namoyon qilish tadqiqotimiz asosiy masalasi hisoblanadi. Ma'lumki o'smirlik davri o'smirda shaxs o'z hayotini mustaqil ravishda rejalashtirishga moyillik uyg'onadi. Buni biz o'smirlik davridagi fiziologik va psixologik o'zgarishlar asosida ko'ramiz. Lekin, ular bu yoshda o'z hayot yo'lining mazmuni haqidagi tasavvuri hali aniq shakllanmagan, o'z-o'zini boshqarish, o'zini to'liq ro'yobga chiqarish qobiliyatiga ega bo'lmaydilar. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, erta o'smirlik davri shaxsning barqarorlashuvi va ilmiy-axloqiy dunyoqarashning shakllanishi davridir.

Psixologiyada o'smirlik o'tgan asr davomida eng ko'p o'rganilgan inson rivojlanishining bosqichlaridan biri bo'lib, asosan o'smirning kelajakdagi shaxsini qurishdagi ahamiyati bilan

bog‘liqdir. O‘smirlik - bu har bir inson o‘z oldida yangi dunyoni kashf etadigan va kutilmagan cho‘qqilarni zabt etishga qodir bo‘lgan davr. Bugungi kunda shaxs ontogenetik rivojlanishida o‘smirlik davri 10-11 yoshdan 15 yoshlarni tashkil etmoqda. O‘smir bolaning jismoniy va psixik taraqqiyoti intensiv tarzda tezlashadi, atrof-muhitdagi barcha narsa va munosabatlarga qiziqishi, yangilik va axborotlarga intilishi ortadi, ma‘naviy qarashlari kengayadi, individual xususiyatlari shakllanadi, xatti-harakatlarida ziddiyatlar avj oladi. Ya‘ni o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. [1]

O‘smirlik davri psixologik adabiyotlarda “o‘tish davri”, “inqiroz davri”, “og‘ir davr” kabi nomlar bilan ataladi. Bu davrning “keskinligi”, “og‘irligi”, “murakkabligi” nimalar bilan asoslanadi? G‘.B.Shoumarovning fikricha, o‘smirlik davrining og‘ir, murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlar: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o‘zgaradi. Shuningdek, o‘smir hayotida, ruhiyatida, organizmning fiziologik jarayonlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli xil holatlar kuzatiladi. O‘smir bolaning jismoniy va psixik taraqqiyoti intensiv tarzda tezlashadi, atrof-muhitdagi barcha narsa va munosabatlarga qiziqishi, yangilik va axborotlarga intilishi ortadi, ma‘naviy qarashlari kengayadi, individual xususiyatlari shakllanadi, xatti-harakatlarida ziddiyatlar avj oladi. Ya‘ni o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. [2]

Quyidagilar o‘smirlarda shaxsiy salohiyatni rivojlantirish dolzarbligini isbotlaydi:

- Ta‘limning nafaqat bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash, balki ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bilan bog‘liq vazifalari;
- o‘smirlik davri inqirozlarining salbiy ta‘sirilarini bartaraf etish usullarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘smirlarda ijtimoiy yo‘naltirilgan xulq-atvorni rivojlantirish zarurati;
- shaxsiy salohiyatini anglash, uni namoyon qilish va undan foydalanish imkoniyatini beradigan ob‘yektiv va sub‘yektiv shart-sharoitlarning yo‘qligi;
- o‘smirlarda shaxsiy salohiyatini namoyon qilishning psixologik xususiyatlarini aniqlash va dolzarblashtirish;

O‘smir shaxsini rivojlantirishning uchta asosiy psixologik sababini ko‘rib chiqamiz.

Birinchidan, har bir bola mustaqil shaxs bo‘lib tug‘iladi: boshqalarning yordamisiz fikrlashga, mustaqil ishlashga va jamiyatda o‘zini o‘zi namoyon qilishga layoqatlidir. Bu, ontogeneza shaxsni shakllantirish jarayonining asosiy yutug‘idir.

Ikkinchidan, ontogeneza har qanday bosqichdagi odam sodir bo‘layotgan voqealarga moslashish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, har bir insonda jamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lish imkoniyati mavjud. Individuallik tuyg‘usini saqlab qolgan holda, boshqa odamlar bilan guruhlariga birlasha oladigan

shaxsga aylanadi. Ya'ni ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradi. Bolalar ham, kattalar ham bunday integratsiya qobiliyatini turli darajada rivojlantirishga sazovor bo'lishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Shaxsiy salohiyat - ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, birinchi navbatda rivojlanish qobiliyatini anglatadi. D.A.Leontievning ta'kidlashicha, "shaxsiy salohiyat - bu shaxsiy yetuklik darajasining ajralmas xususiyatidir". Insonning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish usuli uning o'zini o'zi anglashidir. Ayniqsa, shaxsiy salohiyat insonning qiyin vaziyatlarni hal qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. [5].

A.G.Maklakovning fikricha, shaxsiy salohiyat shaxsning moslashish qobiliyatini tavsiflaydi. Shaxsiy moslashish salohiyati - bu uning moslashishi, motivatsiyasi va kasbiy salomatligini saqlashga ta'sir qiluvchi insonning ichki xususiyatlari. Shuningdek, psixologik xavfsizlik darajasi, nizolarga moyillik, o'z-o'zini baholash, axloqiy fazilatlar va jamiyatdagi xulq-atvor deb hisoblash mumkin.

B.F.Lomovning fikricha, shaxsning salohiyati uning imkoniyatlari, bilim, malaka va malakalar tizimi bilan ifodalanadi.

B.G.Ananyev salohiyatni - shaxsning shaxs sifatida qanday qilib shakllanish jarayoni sifatida ko'rsatadi. [4].

V.V.Sokolov tomonidan shaxsiy salohiyatning quyidagi tuzilishini va uning elementlarini aniqlandi:

-kasbiy salohiyat (insonning kasbiy mahoratini tavsiflovchi bilim, ko'nikma va malakalari);

-ishlash salohiyati (individdning ishlab chiqarish va mehnat faoliyatini amalga oshirish qobiliyati);

-ta'limiy salohiyat (individdning intellektual qobiliyatlari);

-ijodiy salohiyat (shaxsning o'zini o'zi ijodiy ro'yobga chiqarish qobiliyati);

-ma'naviy salohiyat (axloqiy fazilatlar) [6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

O'smirda shaxsiy salohiyatini namoyon qilish o'ziga bo'lgan munosabatning shakllanishi, rivojlanishi, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini hurmat qilish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun, biz o'smirlik davrida shaxsiy salohiyatni o'smirlardagi darajasini o'rganishga harakat qildik. Shu maqsadda tadqiqot ishimizda shaxsiy salohiyat tarkibiga kiruvchi besh komponentdan foydalanib so'rovnoma ishlab chiqildi. O'tkazilgan metodologiya bo'yicha tahliliy ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval O'smirlik davrida shaxsiy salohiyatni namoyon qilish darajasi so'rovnomasi natijalar tahlili

№	Tarkibiy komponentlar	Sinf	O'rtacha arifmetik	Daraja
1	Energetik komponent	7-sinf	5,4	Past

		9-sinf	6,9	O‘rta
2	Motivatsion-qadriyatli	7-sinf	4,6	Past
		9-sinf	5,3	Past
3	Hissiy-irodaviy	7-sinf	4,9	Past
		9-sinf	7,4	O‘rta
4	Kognitiv	7-sinf	5	Past
		9-sinf	7	O‘rta
5	Xulq-atvor	7-sinf	5,4	Past
		9-sinf	7,2	O‘rta

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, **energetik komponent** bo'yicha test topshiruvchi o'smirlar guruhi 7-sinf o'quvchilarida past daraja 9-sinf o'quvchilarida esa o'rta daraja aniqlandi. Natijalar shu tartibda bo'lishi tabiiy. Chunki, o'smirlarda yuz beradigan fiziologik va psixologik o'zgarishlar albatta o'smir individual psixologik xususiyatlari, nerv tizimining muvozanati, jismoniy, psixologik, ijtimoiy salomatlik holatiga salbiy ta'sirini ko'rsatganligi sababli o'rta yosh o'smirlarida energetik komponent pasayadi.

Sinaluvchilarning **motivatsion-qadriyatli komponent** bo'yicha natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 7 va 9-sinf o'quvchilarida ham yosh farqlariga qaramay past daraja kuzatildi. Ya'ni bu daraja o'smirda o'ziga ishonch hissini rivojlantirish, birinchi navbatda o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash, o'zini namoyon qilish, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, ma'naviy yo'nalganlik, mustaqillik, o'zini adekvat baxolash kabi jarayonlarni rivojlantirishi bilan izohlanadi. Ko'rinib turibdiki, tadqiqotda ishtirok etgan o'smirlar guruhida o'z-o'zini ro'yobga chiqarish mazmunini tushunmaslik aniqlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'smirlarning o'z-o'zini namoyon qilishi ular yashayotgan ijtimoiy muhit va ular olgan ta'lim-tarbiyaning natijasi bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarni aks ettirishda sezilarli bog'liqlik qayd etiladi.

Hissiy-irodaviy komponent shkalasi natijalari quidagicha 7-sinf o'smirlarida past, 9-sinf o'smirlarida o'rta daraja. Bu albatta energetik komponent bilan uzviy bog'liqlikni ya'ni hissiy barqarorlik, kuchli irodaviy sifatlar, maqsadga intiluvchanlik, chidamlilik, ongli ravishda o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi nazorat qilish individual psixofiziologik xususiyatlar bilan bog'liq.

Kognitiv komponent shkalasi bo'yicha tadqiqotda qatnashgan 7-sinf o'smirlarida past darajada qayd etilgan. Natijalarda, o'smirlikning dastlabki bosqichida o'z shaxsi va qadr-qimmatini to'liq anglamaslik tuyg'usi, o'z-o'zini bilish va tahlil qilish, analitik qobiliyatlarining rivojlanmaganligi aniqlandi. Shunga ko'ra, o'smirlarning katta yoshga o'tishi bilan ularning shaxsiyati va qadriyatlarini boshqalar oldida tushunish qobiliyati oshganligidan dalolat beradi. O'z-o'zini anglash va namoyon qilish ontogenetik rivojlanish bilan uzviy

bog‘liqdir. Tahlilda, 13 va 15 yoshli o‘smirlar o‘rtasida o‘zini o‘zi qabul qilishda sezilarli farqlar mavjud. O‘smir shaxsida o‘zini-o‘zi qabul qilishning shakllanishi uning ijobiy va salbiy sifatlarini anglagan holda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini tasavvur qila olishidir.

Konnotativ (xulq-atvor) komponenti 13 yoshli o‘smirlarda past va 15 yoshlilarda esa o‘rta darajadagi natijani ko‘rsatdi. Sabab o‘rta yosh o‘smirlarida ijtimoiy malakalarning shakllanmagani, o‘smirlarda tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan til topisha olmaslik, muloqot qobiliyatlari rivojlanmaganligi, shaxslararo munosabatlarning yetishmasligi kuzatiladi. Shu bilan birga, fiziologik va xulq-atvordagi yoshga bog‘liq psixologik rivojlanishdagi o‘zgarishlar natijasida o‘smirning xulq-atvorida o‘zini namoyon qilishi pasayib ketganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA. O‘smirning shaxsiy salohiyati o‘ziga bo‘lgan munosabatning shakllanishi, rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini hurmat qilish bilan tavsiflanadi. Lekin o‘smir o‘zini namoyon qilishi va anglab yetishida uning ijtimoiylashuvida ota-ona, pedagoglarning shaxsiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha psixologik qonuniyat va bilimlarning yetishmasligi psixologik muammolar, qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar, konfliktlar, inqirozlarni keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. G‘oziyev E.G’ **Ontogenez psixologiyasi.** – T: “NIF MISH” 2020. 43-171b.
2. Nishanova Z.T, Kamilova N.G, Abdullayeva D.U, Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya – T: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2018-240-271b.
3. Ганиева Н.О. Психологические особенности реализации личностного потенциала в подростковом возрасте. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2024 Выпуск 34 часть 2; 75с
4. Выготский Л. С. Собрание сочинений : в 6 т. Т. 3 Проблемы развития психики / под ред. А. М. Матюшкина. – М.: Педагогика, 1983.
5. Леонтьев Д.А. Личностная зрелость как опосредствование личностного роста // Культурно-историческая психология развития/ под ред. И.А.Петуховой. М: Смысл, 2001. 154-161с
6. Соколов В. В. Философия духа и материи Рене Декарта. – М.: Либроком, 2011. – С. 78–81.